

Gulnoza Xolmurod qizi Egamnazarova

TerDU "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

gulnoza@tersu.uz

Annotasiya. Ushbu maqolada kreditning rivojlanish tarixi, nazariy asoslari, ilmiy asoslari keltirib o'tilgan. Kreditning turlariga aniq va batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan. Kreditning obektiga ko'ra, to'lash muddatiga ko'ra, kredit to'lash manbasiga ko'ra, kredit to'lash foiziga ko'ra turlari keltirib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье затронута история развития кредита, его теоретические основы и научные основы. Дана конкретная и подробная информация о видах кредитов. В зависимости от объекта кредита, по сроку платежа, по источнику оплаты кредита, по проценту погашения кредита, указываются виды.

Kalit so'zlar. Kredit, bank krediti, xo'jaliklararo kredit, tijorat krediti, ipoteka krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, veksel, konsignasiya, ochiq schyot orqali, mavzumiyl, chegirma berish.

Ключевые слова. Кредит, банковский кредит, межхозяйственный кредит, коммерческий кредит, ипотечный кредит, потребительский кредит, государственный кредит, вексель, коносамент, открытый счет, предмет, скидка.

Jahon amaliyotida kreditlarni yagona, umumlashgan tasnifi yo'q. Chunki kreditlarning turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, axoli orasida kreditlarni berish va qaytarish buyicha tarixan shakllangan (tovar shaklida, pul shaklida, boshqa shakllar va shartlarda) usullariga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilganidan buyon xususiy mulkchilikni har tomonlama kengaytirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki kichik korxonalar bozor sharoitiga tez moslashuvchan va kam xarajat talab qiladigan sektor hisoblanadi. Umuman, bugungi kunda bozor iqtisodiyotining muhim talabi – kam mehnat sarflagan holda, ko'proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarish, kishilarning talab va ehtiyojlarini to'la qondirish va shu asosida foyda olishdan iborat. Bunda ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi kuch xususiy tadbirkorlardir.

Umuman kreditning shakllari uning turi va usullariga ko'p jihatdan bog'liq.

Kreditning asosiy turlari:

Bank krediti	Bu moliya muassasalari (banklar, maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilar (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jligi sektori)gap ul ssudalari shaklida beriluvchi kredit
Xo'jaliklararo kreditlar	Bir korxonona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriluvchi kredit
Tijorat krediti	Korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bir-biriga beradigan krediti
Iste'mol krediti	Xususiy shaxslarga uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari (mebel, avtomobil va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladigan kreditlar
Ipoteka kreditlari	Ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi kredit. Bunday ssudalar berish vositasi banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalari hisoblanadi.
Davlat krediti	Bunda davlat pul mablag'lari qarzdori aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadigan kredit munosabatlarining o'ziga xos shaklidir.

Bank kreditlari quyidagi belgilari bo'yicha guruhlanadi:

1. Kreditlash obyektlarining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra
 - a) tovar-moddiy boyliklar uchun beriladigan kredit.
 - b) ishlab chiqarish harajatlari (xom-ashyo va boshqalar) uchun beriladigan kredit.
2. To'lash muddatiga ko'ra (qisqa, o'rta va uzoq muddatli)
 - a) Muddatli
 - b) Muddati kechiktirilgan
 - c) Muddati o'tgan.

Bu mezon turli mamlakatlarda turli muddatni o'z ichiga oladi:

Muddati	Rossiya	AQSh	Buyuk Britaniya	Fransiya	O'zbekiston
Qisqa	1yilgacha	1yilgacha	3 yilgacha	1yilgacha	1yilgacha
O'rta	1-3 yil	1-6 yil	3-10 yil	2-7 yil	1-3 yil
Uzoq	3 yildan ortiq	6 yildan ortiq	10 yildan ortiq	7 yildan ortiq	3 yildan ortiq

Qisqa muddatli kreditlar aylanma mablag`larni moliyalashtirishga, o'rta va uzoq muddatli kreditlar asosiy kapitalni moliyalashtirishga beriladi

3. Kreditni to'lash manbalariga ko'ra.
 - a) Qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobiga.
 - b) Garant mablag'lari hisobidan
 - c) Yangi kreditlar jalb qilish hisobidan.
4. Ta'minlanganlik tamoyilining amal qilishiga qarab.
 - a) Bevosita to'g'ri ta'minlangan (o'z mulki va mablag'i hisobiga).
 - b) Bilvosita ta'minlangan kreditlar (uchinchi shaxs kafolati)
 - c) Ta'minlangan kreditlar (sug'urta va yuqori tashkilotlar)
5. To'lanadigan foiz darajasiga ko'ra
 - a) Past foiz stavkali.
 - b) O'rta foiz stavkali
 - c) Yuqori foizli
 - d) Foizsiz (hukumat qaroriga ko'ra ayrim sohalarni rivojlantirish yoki tadbirlarni amalga oshirish uchun).

Davlat kreditining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlatning bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok etishi, qarz beruvchi vazifasini bajara turib davlat davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodiyotning har xil sohalarni kreditlashni o'z zimmasiga oladi. Bu markazlashgan kreditlar iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini kreditlash, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aniq tarmoq va sohalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati bo'lmaganda vaqtincha foydalanishga mablag' ajratilishi mumkin.

Undan tashqari tijorat banklariga banklararo kreditlar bozorida kredit resurslarini kim oshdi savdo yo'li bilan yoki to'g'ridan to'g'ri sotish jarayonida davlat tomonidan mablag'lar vaqtincha foydalanish uchun berilishi mumkin.

Davlatning qarzlari ko'paygan hollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida davlat qarz oluvchi sifatida davlat qarzlarni joylashtirish jarayonini amalga oshiradi.

Davlat xazina majburiyatlarini chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish, davlat zayomlarini chiqarish va sotish yo'li bilan banklarning, aholining va boshqa moliya-kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga sarflaydi. Davlat o'z qarzidan voz kechishi ham mumkin.

Bundan tashqari davlatni ichki va tashqi qarzlari, davlat kafil va kreditor sifatida ham bo'lishi mumkin.

Iste'mol kreditining xususiyati u jismoniy shaxslarga beriladi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga savdo va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Iste'mol krediti ikki shaklda: pul shaklida va tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga bunday kreditlar ko'chmas mulkka egalik qilish uchun, har xil tovar va xizmatlar, uy jixozlarini sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun beriladi.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda bunday kreditlar uy-joy sotib olish va qurishga, avtomobil sotib olishga va boshqa maqsadlarga berilmoqda. Mamlakatimizda 2001-2002 o'quv yilidan boshlab talabalarga o'qish xizmati uchun «Oltin davrim» krediti berilmoqda.

AQShda bu sohaga kam foizli yiliga 2500 dollar, oxirgi kursda 5000 dollar miqdorida kredit berilib talaba uni o'qishni tugatib ishlash davomida uzadi.

Tijorat krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining vujudga kelishining dastlabki shakllaridan hisoblanadi. Tijorat kreditining obykti bo'lib sotiladigan tovarlar, subyekti bo'lib mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar hisoblanadi. Bu kreditning asosiy maqsadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orqali foyda olishdan iborat.

Tarixan tijorat kreditining quyidagi usullari mavjud:

1. Veksel usuli
2. Ochiq schyot orqali
3. Chegirma berish.
4. Mavsumiy
5. Konsignasiya

Veksel bu qarz majburiyati bo'lib, qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzni ko'rsatilgan so'mmada, ko'rsatilgan shartlarda, belgilangan muddatda to'lash majburiyatini oladi.

Amaliyotda vekselni oddiy va o'tkazma turlari mavjud.

Oddiy vekselni qarz oluvchi korxonaga qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun unga to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

O'tkazma vekselda (bu hujjat tratta ham deyiladi) kreditor tomonidan belgilangan tovar va xizmatlar so'mmasi uning topshirig'iga asosan uchinchi shaxsga yoki vekselni ko'rsatuvchiga o'tkazilishi lozim va hokazo.

Ochiq schyot orqali hisoblashilganda haridor tovarga buyurtma berilishi bilan yuklab jo'natiladi, to'lov esa o'rnatilgan muddatlarda kelishilgan summa chegarasida vaqti-vaqti bilan amalga oshirilib boriladi. Bunda haridor har gal tovar olishda kreditni rasmiylashtirib o'tirmaydi, ya'ni kreditga murojaat qilmaydi.

Chegirma berish usulida haridor to'lov hujjatlari yozilgandan so'ng, shartnomada kelishilgan ma'lum davr ichida to'lovni amalga oshirsa to'lov yig'indisidan chegirma beriladi. Agar ushbu davrda to'lay olmasa, unda belgilangan muddatda to'lovni to'liq amalga oshiradi.

Mavsumiy kredit odatda o'yinchoqlar, suvenirlar va boshqa xalq iste'mol mollarini sotishda qo'llaniladi. Masalan, o'yinchoqlarni vaqtdan oldin olib yangi yil o'tgach yanvar-fevral oyida to'laydi. Buni ishlab chiqaruvchilar uchun qulayligi ular o'yinchoqlarni omborlarda saqlash harajatlaridan xolos bo'ladilar.

Konsignasiya usulida tovarni sotib oluvchilar hech qanday majburiyatsiz sotib oladilar, ya'ni tovarlar sotilganidan keyin puli to'lanadi, agar u sotilmay qolsa egasiga qaytarib beriladi.

Xorijiy mamlakatlarda tijorat kreditidan keng foydalaniladi. MDH mamlakatlari amaliyotida tijorat kreditidan kam foydalaniladi. Umuman jaxon amaliyotida ham tijorat kreditining ochiq schyot, konsignasiya, chegirma berish usullari kengroq foydalaniladi.

Tijorat kreditining salbiy tomoni bo'lib tovarlarni kreditga bergan tashkilot unga pul tushgunga qadar mablag'ga muxtoj bo'lishi, uni o'zi kreditga murojaat qilishga majbur bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham korxonalarni tijorat kreditidan foydalanishi bank kreditidan foydalanishni inkor qilmaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olmagan holda tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxonalarining aylanma mablag'larini xo'jalik faoliyatidan tezroq bo'shashini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Kredit faoliyati kredit resurslariga ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan qayta taqsimlashni amalga oshirish hamda kredit faoliyatining sub'ektlari uchun daromad olish imkonini beradi. Kredit faoliyati yaratuvchilik tabiatining mohiyati

olinayotgan yoki berilayotgan resurslar orqali o'z manfaatlariga erishishdan iborat. U iqtisodiy munosabatlarning ana shu jihatini etakchi o'rinlardan biriga chiqaradi.

Kredit faoliyatining qatnashchilari shu faoliyat natijasida bevosita yoki bilvosita daromad ko'radilar.

Kredit faoliyati barcha manfaatdor taraflarga real foyda keltiradi. Qarz oluvchilar ma'lum bir muddatga o'zlarining tijorat, ishlab chiqarish va boshqa shu kabi manfaatlariga etishish maqsadida yirik pul kapitalidan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. Kreditorlar esa foiz ko'rinishida daromad oladilar. Bundan tashqari, kredit faoliyati ishlab chiqarishga investitsiyaning kirib kelishini rag'batlantiradi, progressiv tarkibiy siljishlarga turtki bo'ladi. Bugungi kunda kredit iqtisodiyotnimakrodarajada tartibga solishning muhim vositalaridan biriga aylangan. U milliy valyuta va baholar barqarorligini, iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi birlamchi masalalarni hal etishda yordam beradi. SHunday qilib, kredit faoliyatini ikki sub'ekt - qarz oluvchi va qarz beruvchi (kreditor)larning bo'lishini taqazo etadigan amaliyot deyish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun doimo qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezadilar.

Ana shunday pul mablag'larining manbalari banklarning o'z va jalb qilingan mablag'lari bo'lishi mumkin. Korxonalar mablag' etishmovchiligidan qiynalayotgan hollarda kredit resurslari bozoriga murojaat qilishga majbur bo'ladilar. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kredit vositasida pullarni xo'jalik aylanmasiga kiritish har qanday holatda mumkin. Naqd pulsiz o'tkazmalar sharoitida Markaziy bank ham, tijorat banklari ham texnik jihatdan istalgan miqdordagi pulni muomalaga chiqarishi mumkin. Ammo tijorat banklarining naqd pulni muomalaga chiqarish imkoniyati cheklangan. CHunki muomaladagi naqd pul miqdori Markaziy bank balansining passividagi majburiyatlar summasidan oshmaydi va naqd pulni emissiya qilish vakolati faqat Markaziy bank zimmasidadir. Markaziy bank muomalaga chiqaradigan to'lov vositalari uning balansini aktiv qismi doirasida amalga oshiriladi, tijorat banklarining imkoniyati esa, ularning likvidligiga nisbatan belgilangan talablar bilan chegaralanadi. Pul mablag'larini kredit sifatida berishda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, quyidagi shartlarga rioya qilinishi talab etiladi:

muddatlilik; to'lovlilik; qaytarishlik; ta'minlanganlik va maqsadlilik. Tabiiyki, mazkur shartlarni to'liq bajarilishi berilgan kredit bo'yicha riskning oshishiga yo'l qo'ymaydi. Kreditning maqsadlilik uning mijoz faoliyatining bankka ma'lum bo'lgan va bank tomonidan ma'qullangan yo'nalishga berilishini anglatadi.

Hozirgi kunda respublikamizda milliy valyuta kursining chet el valyutalariga nisbatan doimiy ravishda o'sib borish tendensiyasini hamda baholarning muntazam o'sishini inobatga olgan holda kredit uchun garov sifatida qabul qilingan mol-mulk bahosini har oy yoki har chorak yakuniga qayta baholashni yo'lga qo'yish zarurdir. D.Polfreman, F.Fordlar muallifligidagi "ОСНОВЫ БАНКОВСКОГО ДЕЛА" kitobida mijozning kredit yig'ma jildini o'rganishga e'tiborni kuchaytirish kreditlash amaliyotini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida qaralgan¹.

Hozirgi zamon jamiyatida banklar ko'p sonli va xilma - xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan muassasaga aylandi. Ular orqali iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish operatsiyalari, korxonalariga tegishli mulklarni boshqarish operatsiyalari va boshqa bir qator moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Biroq shunga qaramasdan kredit operatsiyalari tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan operatsiya sifatida saqlanib qolmoqda.

Qisqa muddatli kreditlash bu kreditlash ob'ektlari, kreditlash metodlari, ya'ni kreditlash tamoyillari bo'yicha kredit berish va qaytarish usullariga asoslangan holda kreditning kapital aylanishida qatnashishi tushuniladi. Banklarning qisqa muddatli kreditlashini tashkil qilish turli mamlakatlarda davlatning me'yoriy-xuquqiy hujjatlariga asoslanadi. Ya'ni, banklar uchun mijoz va bank talablarini, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari, shuningdek, milliy tarixiy bank ishlarini hisobga olish zaruriyatini bildiradi. Xorijiy va milliy iqtisodchilar kreditning mohiyati va roliga nisbatan turli xil nazariy yondashuvlarga ega bo'lsalarda, ularning barchasi banklarni qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish asosini korxonaning to'lov aylanmasi qonuniy ekanligi bilan bog'lashadi[3]. Kapital aylanishining asosiy qonuniyati sifatida uning uzluksiz ta'minlanishi tushuniladi.

Jahon amaliyotida tarixan qisqa muddatli kreditlash tizimining evolyusiyasi bir martalik maqsadli kreditlarning umumiy to'lov aylanmasini kreditlashga o'tishga asoslangan. Kreditlarni berish va so'ndirishning aniq usullari banklarning tashkiliy xususiyatlari va ularni korxonalar bilan o'zaro munosabatlari, qonunchilik me'yorlari ta'siri ostida shakllandi. Bu usullar G'arb mamlakatlarining kreditlash tizimlarini bir-biridan farq qiluvchi qisqa muddatli kreditlash shakllarida o'z aksini topdi. Masalan, AQSHda kredit liniyalari², Germaniyada kontokorrent kreditlari³.

¹ Mahmudov N.M., Avazov N.R. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari. Ilmiy - ommabop risola. - T.: TDIU. "Iqtisodiyot" nashryoti, 2019. - 104 b.

² Sultonov M.A. O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan avtoreferat. Toshkent - 2019. - 56 b

³ Тимоти У.Кох. Управление банком. Пер. с англ. В 5-ти книгах, 6-ти частях. Уфа: Спектр. Часть 5

Buyuk Britaniyada overdraft kreditlash shakllari keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Amaliyotda mazkur shakllar mijozlar to‘lov aylanmasi uzluksizligini ta‘minlash va banklar kreditlash hajmini oshirish imkonini beradi. Mamlakat banklarining kreditlash amaliyotida korxonalarda o‘z aylanmamablag‘larining keskin etishmovchiligi qisqa muddatli kreditlashni rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Буранова Л. В. и др. Повышение эффективности управления кредитными ресурсами предприятия //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 329-333.
2. Mahmudov N.M., Avazov N.R. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘llari. Ilmiy – ommabop risola. – T.: TDIU. “Iqtisodiyot” nashryoti, 2019. – 104 b.
3. <https://www.imv.uz/>
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot/12-kategoriya-uz/6049-sitemap-uz>
5. <https://cbu.uz/oz/>
6. Turoпова N. O ‘zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o ‘ziga xos xususiyatlari. – 2023.
7. Буранова Л. В. и др. Зарубежный опыт ипотечного жилищного кредитования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 437-345.
8. O.Y. Rashidov, I.I. Alimov, I.R. Toymuhamedov, R.R. Tojiyev “Pul,kredit va banklar” Cho 'lpon nomidagi nashriyot-mathaa ijodiy uyi Toshkent – 2011
9. Abdullaev A.J, Qayimova Z.A, Boltaev Sh.Sh, Narzieva D.M “Pul va banklar” O‘quv qo‘llanma “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2021
10. <https://www.imv.uz/>
11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot/12-kategoriya-uz/6049-sitemap-uz>
12. <https://cbu.uz/oz/>
13. Eshpulotovich E. A. O ‘quvchilar ongida tadbirkorlikni shakllantirishda iqtisodiy tarbiyaning o ‘rni //Journal of Universal Science Research. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 76-81.
14. Sobitova R. S. Localization of production as a tool of modernization //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – С. 407-411.

15. Sobitova R. S. Scientific and theoretical bases of localization of industrial production //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 10. – С. 401-406.
16. Собитова Р. С. Ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш–саноат сиёсатининг негизидир //минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари. – 2020. – С. 571-574.
17. Собитова Р. С., Ёрматов Ш. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида саноатни диверсификациялаш //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2012. – №. 11. – С. 30-36.
18. Allayor o'g'li X. R. Globallashuv sharoitida hududning eksport salohiyatini yanada takomillashtirish yo'nalishlari //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 799-803.
19. Allayor o'g'li X. R. Hududning eksport salohiyatini statistik tadqiq qilish va ekonometrik modellashtirish (surxondaryo viloyati misolida) //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 20. – С. 753-755.
20. Allayor o'g'li X. R. Eksport faoliyatini takomillashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi //technical science research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 154-160.
21. Allayor o'g'li X. R. Eksport va eksport salohiyati tushunchalariga nazariy qarashlar //Journal of Universal Science Research. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 202-210.
22. G'aybullayevich X. A. Iqtisodiy tarmoqlar rivojlanishida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ahamiyati: Crossref //IQRO. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 68-71.
23. G'aybullayevich X. A. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solishning strategik yo'nalishlari //PEDAGOG. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 545-548.
24. G'aybullayevich X. A. Bozor munosabatlarining rivojlanish sharoitida hududiy ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni boshqarish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 294-298.
25. Mukhammadiyevich O. S. Experiences in the study and analysis of population employment in foreign countries //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – Т. 10. – №. 12.
26. Muhammadiyevich O. S. Main problems of population employment and ways to solve them //American Journal of Science on Integration and Human Development. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 10-13.

VOLUME-2, ISSUE-3

27. Ortikov S. M. Experience in statistical study and analysis of employment in foreign countries //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – Т. 10. – №. 7.
28. Ziyodullayev S. M. Tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish //International scientific and practical conference "the time of scientific progress". – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 91-100.
29. Ziyodullaev S. M. Descriptive indicators of the level of income of banks'assets //" Online-conferences" PLATFORM. – 2023. – С. 229-233.
30. Ziyodullaev S. M. Commercial banking investment attractive legislation normative-legal basis //innovative development in the global science. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 10-17.
31. Зиёдуллаев С. Тижорат банклари активлари рентабеллигини оширишнинг долзарб масалалари: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a17 //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – Т. 23. – №. 5. – С. 107-111.
32. Khidirberdievich A. E., Mamadillayevich Z. S. Issues of Regulation of Blockchains in the Digital Economy and World Experience in Reducing, Preventing the " Hidden Economy" //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 7. – С. 591-597.
33. Xudoyberdievich X. E. Qishloq xo'jaligidagi asosiy vositalarni takomillashtirish va ularning iqtisodiy jarayonlari //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 1093-1096.
34. Xudoyberdievich X. E. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy kontsentratsiyaning roli //Ijodkor o'qituvchi. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 466-470.
35. Xudoyberdiyevich X. E. Qishloq xo'jaligida investitsiya va uning samaradorligini oshirish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 622-627.
36. Xurramov E. Technology for the development of cognitive activity of students in the process of teaching a foreign language //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2021. – Т. 2. – №. 5.
37. Khurrama E. X. Эффективное увеличение сельскохозяйственного производства на землях лесного фонда //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 7. – С. 5-9.
38. Khurramov E. X. Role of innovation in increasing efficiency of production of agricultural products in forestry //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – С. 518-521.